



Mavzu:

**O'zbek tilining yangi imlo qoidalarari.
“Lotin yozuviga asoslangan yangi imlo
qoidalarari”ning qabul qilinishi va uning
ahamiyati.**

O'qituvchi: Ruzikulova G. F.



TIAME

O'ZBEK TILINING YANGI IMLO QOIDALARI

Yozuv har bir xalqning ma'naviy boyligi, yuksak madaniyatga erishganligining o'ziga xos ko'rinishi sanaladi.

So'zlarning yozilishidagi barqarorlik, qat'iylik millatni yakdillikka, ma'naviy jipslikka yetaklaydi. Shu ma'noda har bir xalq o'z tilining imlo qoidalarini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etadi.



Kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarimiz 1956-yilda tasdiqlangan edi. Davr o'tishi bilan u eskirdi, amaliy ehtiyojlarimizga javob bermay qoldi. Shu bois, 80-yillarning boshlaridayoq uni yangilashga urinishlar boshlandi.



TIAME

**O'zbek tiliga davlat tili maqomining
berilishi, mustaqillikning qo'lga kiritilishi
yangi imlo qoidalarini ishlab chiqish
uchun qulay imkoniyat yaratdi. Lotin
yozuviga asoslangan yangi alifboning
joriy etilishi esa bu jarayonni yanada
tezlashtirib yubordi.**



TIAME

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi 1995- yilning 24-
avgustida 339-sonli «O'zbek tilining asosiy
imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror
qabul qildi. U 82 banddan iborat bo'lib,
quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:



TIAME

Harflar imlosi:

unlilar imlosi (1—7-bandlar);

undoshlar imlosi (8—32-bandlar).

Asos va qo'shimchalar imlosi (33—37-bandlar).

Qo'shib yozish (38—50-bandlar).

Chiziqcha bilan yozish (51—56-bandlar).

Ajratib yozish (57—56-bandlar).

Bosh harflar imlosi (66—74-bandlar).

Ko'chirish qoidalari (75—82-bandlar).



TIAME

O'zbek lotin alifbosi, o'zbek lotin yozuvi — lotin grafikasiga asoslangan harftovush (fonografik) yozuv turi. O'zbek yozuvi tarixida lotin yozuviga asoslangan alifboning bir necha variantlari qabul qilingan.



O'zbek yozuvini arab grafikasidan lotin grafikasiga o'tkazish haqidagi dastlabki qaror 1929-yil 15—23 may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan respublika adiblari, til-imlochilari va umuman yetakchi ziyolilar ishtirokidagi konferensiyada qabul qilingan va bu qaror 1929-yil 10-avgustda O'zSSR Xalq maorif komissarligi hay'ati tomonidan tasdiqlangan edi. Ixtiyoriylikdan ko'ra ko'proq majburiylikka asoslangan bu jarayon Moskvada ishlangan reja asosida Moskva vakillari kuzatuvida amalga oshirilgan edi.



TIAME

Samarqand konferensiyasida qabul qilingan „lotinlashtirilgan o‘zbek alifbosi“ 33 harf va bir belgi (apostrof)dan iborat bo‘lgan. Konferensiyada singarmonizm o‘zbek adabiy tili uchun xos hodisa deb topilishi va alifboga 9 ta unli uchun alohida harflar kiritilgani, shu asosda ishlab chiqilgan imlo qoidalari keyinchalik o‘zini oqlamadi, amalda imloda boshboshdoqlik vujudga keldi, ayni bir so‘z bir necha xil yoziladigan bo‘ldi. Natijada 1934-yilning yanvar oyida til va imlo masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan respublika qurultoyida o‘zbek alifbosidan **Ө ө, У у, Ё ё** harflarini olib tashlashga, hamda **Ә ә** harfidan foydalanishni cheklashga va uning o‘rniga aksar hollarda **А а** harfidan foydalanishga qaror qilingan. Bu qaror O‘zbek SSR hukumati tomonidan 1934-yil 13-martda tasdiqlangan.

Lekin o‘tgan asrning 30-yillari 2-yarmidan o‘zbek yozuvini rus grafikasi asosida shakllantirish ishlari boshlanib, bu jarayon 1940-yilda yangi kirillcha alifbo qabul qilinishi bilan yakunlangan.



TIAME

*Harflarning alifbodagi asl tartibi: **A a, B b, C c, D d, E e, F f, G g, H h, I i, J j, K k, L l, M m, N n, O o, P p, Q q, R r, S s, T t, U u, V v, X x, Y y, Z z, Ç ç, Ğ ğ, Ĳ Ĳ, Ñ ñ, Ö ö, Ş ş, '***

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng respublikada o'zbek yozuvini rus grafikasidan yana lotin grafikasi asosidagi yozuvga o'tkazish haqida fikr-mulohazalar o'rta tashlandi. Bu masala bir yil davomida ommaviy axborot vositalarida keng jamoatchilik ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, 1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining „Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida“gi qonuni e'lon qilindi. Yangidan qabul qilingan o'zbek alifbosi 31 harf va bir tutuq belgisi (apostrof)dan iborat deb belgilandi.



1993-yilda joriy etilgan alifboni va shu asosda tayyorlangan „O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ni muhokama qilish jarayonida bir qator taklif va tavsiyalar qilindi, tanqidiy fikrlar bildirildi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-may kuni alifboga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida qonun qabul qildi. Bu hujjatga binoan 1) yangi o‘zbek alifbosi 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasidan iborat ekanligi belgilandi; 2) **C c, J j** harflari alifbodan chiqarib tashlandi; 3) **Ç ç, Ğ ğ, Ş ş, Ñ ñ** harflarning shakliga esa isloh kiritildi. Yangi alifbo asosida ishlash 1996-yildan boshlanishi qayd etilgan edi.



Amaldagi o'zbek alifbosi

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	Mm
Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz
O' o'	G' g'	Shsh	Chch	ng	'



O`zbek tilining asosiy imlo qoydalarini tasdiqlash haqida

339-son. 1995-yil. 24-avgust. Toshkent sh.

O`zbekistonning “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1.O`zbek tilining asosiy imlo qoidalariga tasdiqlansin.

2.Respublika vazirligi, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari,ommaviy axbarot vozitlari lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarsda,matbuotda ,ish yuritishda ushbu qidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3.O`zbekiston Fanlar akademiyasi,Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi,Xalq talim vazirligi, Davlat matbuot qo`mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo`llanma sifatida o`zbek tilining imlo lug`atini, kishi isimlari va joy nomlari lug`tlarini tayorlasinlar va nashir etish choralarini ko`rsinlar.



E'TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT!